


NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024- YIL YANVAR-SENTABR (DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 69-211-72-00
www.namstat.uz**

Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2024-yil yanvar-sentabr oylarida


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 21 699,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,4 % ni tashkil etdi.

yanvar-sentabr
mlrd. so'mda




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,3 % ni tashkil etdi.

yanvar-avgust
FHI, % da




yanvar-avgust
ulushi, % da



2024- yil yanvar-sentabr oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog' kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 116,7 % ni tashkil etmoqda.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 84,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat

2024- yil yanvar-sentabr oylarida



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17 863,7 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,3 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 1,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 6,2 % (6,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 12,9 % (13,5 %) va quyi texnologiyalisi – 60,3 % (61,0 %) ni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-sentabr oylarida

Jami sanoat tarkibida kiyim ishlab chiqarishning ulushi 12,6 % (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 16,9 % (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,3 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,8 % (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 168,5 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,9 % (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,7 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,0 % (2023-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,9 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



2024- yil yanvar-sentabr oylarida



2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida jami sanoatda 24,4 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 71,0 % ga kamaygan), 14,7 ming tonna paxta tolasi (105,0 % ga yetdi), 9,9 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (59,9 % ga kamaygan) hamda 22,7 ming tonna paxta chigiti (87,7 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	14,6	9,9	-4,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	34,3	24,4	-9,9
Paxta tolasi, ming tonna	14,0	14,7	0,7
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	6,5	7,4	0,9

2024- yil yanvar-sentabr oylarida


Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 69,2 % bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga, metallurgiya sanoatining ulushi 2,8 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 189,5 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 604,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 812,4 mlrd so'mni yoki jami sanoat hajmining 5,5 % ni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 1205,6 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2 198,9 mlrd so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3 675,6 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 98,3 mlrd so'mga ortgan.



2024- yil yanvar-sentabr oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 561,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 977,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 416,4 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-sentabr oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 106,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 108,3 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 4 609,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ja'mi ishlab chiqariladigan sanoat tarkibida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 11,4 % ni, ya'ni jami 1 698,2 mlrd so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 12,6 % ni tashkil etib, 2 726,9 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 1 028,7 mlrd. so'mga oshgan.




2024- yil yanvar-sentabr oylarida

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 457,0 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Namangan viloyati bo'yicha 382,8 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 10,1 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 1,1 mlrd. so'mga ko'payib, 11,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar jami sanoatdagi hajmi 390,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 42,3 mlrd. so'mga ko'paygan va 433,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-sentabr oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2024-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 454,6 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 15,9 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1042,0 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-sentabr	2024- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4 536,6	4 188,2	-348,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	41,5	69,5	28,1

2024-yil yanvar-sentabr oylarida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 296,4 mlrd so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-sentabr	2024-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	73,5	99,2	25,7
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	24,4	42,6	18,2


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 25,7 mlrd. so'm yoki 35,0 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'rnalarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 18,2 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.

2024-yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3 427,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,5 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024-yil yanvar-sentabr)

